

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BALIQCILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

TEMIROVA NILUFAR TOJINOROVNA

**VENGER KARP (*CYPRINUS CARPIO* L.) BALIG'INI INTENSIV USULDA
YETISHTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya, Chorvachilik maxsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contens of dissertation abstract of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Temirova Nilufar Tojinorovna

Venger karp (*Cyprinus carpio* L.) balig'ini intensiv usulda
yetishtirishning texnologik asoslari..... 3

Темирова Нилуфар Таджиноровна

Технологические основы интенсивного
разведения венгерского карпа (*Cyprinus carpio* L.) 21

Temirova Nilufar Tajinorovna

Technological basis of intensive breeding of
hungarian carp (*Cyprinus carpio* L.) 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BALIQCILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

TEMIROVA NILUFAR TOJINOROVNA

**VENGER KARP (*CYPRINUS CARPIO* L.) BALIG'INI INTENSIV USULDA
YETISHTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya, Chorvachilik maxsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Qx742 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Baliqchilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz), Respublika ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kuzmetov Abdulaxmet Raymberdiyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kamilov Baxtiyar Ganiyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Sobirov Jobir Jamolovich
biologiya fanlari falsafa doktori, (PhD) katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «31» May kuni soat 14⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz) Toshkent davlat agrar universiteti ma'muriy binosi. 2-qavat maslislar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 550722 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100140. Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi 1-qavat Tel (99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «17» 05 kuni tarqatildi.
(2024 yil «09» Apreldagi 01 raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.R.Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor

X.A.Donayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, q.x.f.d. (PhD) dotsent

A.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d.,
katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyoda aholi jon boshiga bir yilda iste'mol qilinadigan baliq go'shti o'rtacha 22-24 kg ni tashkil etmoqda... «Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyasiga ko'ra, odam organizmidagi moddalar (yod, kalsiy va boshqa tez hazm bo'luvchi oqsillar) tanqisligining oldini olish maqsadida bir yil davomida o'rtacha 12-16 kg baliq go'shti iste'mol qilishi lozimligi belgilangan»¹ Bu esa o'z navbatida suv resurslari cheklangan, ayniqsa baliqlarning tabiiy ozuqa bazasi taqchilligi mavjud sharoitlarda baliq yetishtirishning intensiv texnologiyalarini ishlab chiqish, naslchilikni rivojlantirish, kasalliklarga chidamli va sermahsul baliq zotlari yaratishni taqozo etmoqda. Hozirga kelib sun'iy ko'paytirish va yetishtiriladigan baliqlar xo'jalik qimmatli belgilarini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar miqyosini kengaytirishga jaxon bo'yicha muammo sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda baliqlarning nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini yaxshilash, yangi baliqlar genofondini yaratish, hamda saqlash, foydali genetik belgilarga ega bo'lgan zotlarni olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, hovuzlarda yetishtirilayotgan baliq zotlarining holatini baholash, reproduktiv va mahsuldorlik xususiyatlarini sifat ko'rsatkichlari va nasldorlik xususiyatlarini yaxshilash, seleksiya ishlarini rivojlantirish asosida turli iqlim sharoitlariga mos zotlarni yaratish muhim sanaladi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "suv zahiralari boshqarish tizimini tubdan isloh qilish", "chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 hissa oshirish" shuningdek, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni yetishtirish va eksport salohiyatini oshirish" bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Shunga ko'ra, sun'iy hovuzlarda yetishtirilayotgan baliq zotlarining holatini baholash, baliqlarni intensiv usulda yetishtirishning yangi texnologiyasini yaratish va uni ishlab chiqarishga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda nasldor baliqlarni davlat ro'yxatiga olish, kelib chiqishini aniqlash va mahsuldorligini belgilash, ular haqidagi ma'lumotlarni hisobga olish, seleksiya ishida eng qimmatli genofondan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish hamda muayyan joyga xos va mamlakatimizdagi yo'q bo'lib borayotgan zotlar genofondini saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida² "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish, baliq mahsulotlari turlarini ko'paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko'paytirish hamda baliqchilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash" muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan sun'iy hovuzlarda yetishtirilayotgan baliq zotlari holatini baholash, naslchilik – seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish,

¹ <https://www.who.int>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 13 yanvardagi PQ-83-son «Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori.

nasldor baliqlarni urchitish, naslli mahsulot yetishtirish va undan foydalanish, baliqlarning mahsuldorlik sifatlarini oshirish yo'llarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda 165-I-son "Naslichilik to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PQ-2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018 yil 6 noyabrda 4005-son "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentabrda 719-son "Baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2017 yil 18 oktabrda 845-son "Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yetishtirilayotgan baliq zotlarining holati, kasalliklarga chidamliligi, ularning nasldorlik va mahsuldorlik sifatleri, o'sish va ko'payuvchanlik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar xorij olimlarning jumladan, E.K.Balon (1995), G.Hulata (1995), E.Brzuska (2000, 2001), J.J.Parkos (2003), M.R.I.Sarder et al (2007), E.J.Noga (2010), M.S.Hussein (2012), D.Jelkis (2012, 2014) tadqiqotlarida keltirilgan.

MDH mamlakatlarida hovuz baliqchiligi sharoitida yetishtirilayotgan baliq zotlari, biotexnologik jarayonlari bo'yicha tadqiqotlar I.N.Ostroumova (2001), A.K.Bogeruk (2008), A.K.Bogeruk, N.I.Maslova (2002), Yu.A.Privezensev, V.A.Vlasov (2004), Yu.A.Jeltov, A.A.Alekseenko (2006), P.V.Datsyuk (2009), V.A.Vlasov (2012), A.Voynarovich va boshq. (2014), A.B.Xabjokov (2018) kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda karp balig'i zotlari va yaylov akvakulturasini texnologiyasi borasidagi ma'lumotlar B.K.Karimov va boshq. (2008), B.G.Kamilov va boshq. (2017), B.G.Kamilov va boshq. (2018), M.A.Yuldashov (2019), M.E.Ummatova (2020), B.B.Norboyev (2022) larning tadqiqotlarida keltirilgan.

Biroq yuqoridagi tadqiqot ishlari Respublikamizda yetishtirilayotgan baliqlarning suv xavzalariga moslashganligi, rivojlanishi, boshqa karp baliqlari zotlari bilan chatishtirilganda kasalliklarga chidamliligi va mahsuldorligi haqida to'liq ma'lumotlar bera olmaydi. Shunga ko'ra, sun'iy hovuzlarda yetishtirilayotgan Venger karp balig'i zotining holatini baholash, urchishi, serpushtiligi, oziqlanish xususiyatlari va ularning mahsuldorlik sifatlarini oshirish chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti Baliqchilik ilmiy - tadqiqot instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq QH-A-QX-2018-106 "Qimmatbaho baliq turlari va chavoqlarini, shuningdek ularning tabiiy ozuqa bazasi organizmlarini yetishtirishda jadal akvakulturaning biotexnologik majmuasini ishlab chiqish" (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha hamda, I-KX-2019-44 "Yopiq aylanma suv ta'minoti qurulmasida baliqlarni urchitish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi innovatsion loyiha (2019-2021) ilmiy tadqiqot ishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Venger karp balig'i zotining o'sishi, serpushtligi, oziqlanish xususiyatlarini baholash va intensiv usulda yetishtirishning texnologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: sun'iy hovuzlarda baliqlarni o'stirishdagi harorat rejimi, gidrokimyoviy rejim, suv havzasidagi tabiiy ozuqa bazasini shakllantirish;

Venger karp balig'ini intensiv usulda mahalliy omuxta yem va qo'shimcha ozuqalar bilan oziqlantirishni sinovdan o'tkazish;

zooplankton organizmlarining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini baholash va laboratoriya sharoitlarida zooplankton organizmlarni yetishtirish;

Venger karp balig'ining baliqchilik-biologik va reproduktiv xususiyatlarini yoritish;

Venger karp balig'ini Ukrain zoti bilan chatishtirish va gibril chavoqlarni olish;

gibril chavoqlarning iqtisodiy samaradorligini ochib berish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida sun'iy hovuzlarda yetishtirilayotgan Venger karp balig'i zoti olingan.

Tadqiqotning predmeti Venger karp balig'ining o'sish ko'rsatkichlari, jinsiy voyaga yetishi va serpushtlik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada baliqchilik, naslchilik, qiyosiy, gidrobiologik, gematologik va variatsion statistika uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba Venger karp balig'ini intensiv usulda yetishtirishning urchitish, chavoq boqish, va o'stirish jarayonlaridan iborat texnologik jarayonlari yaratilgan;

Venger karpi chavoqlarining vaznini zooplankton organizmlarni hovuzga kiritish asosida 15-25 g dan 40 g gacha, "Bactovit uz" biopreperatini qo'llash orqali kunlik o'rtacha vaznini sutkasiga 0,3 g gacha oshirishga erishilgan.

Venger karp balig'ini intensiv usulda mahalliy omuxta yem va qo'shimcha qora askar pashshasi (*Hermetia illucens*) tirik ozuqa bilan oziqlantirish ularning individual tirik vaznini 350-500 grammga oshirishning imkoniyati mavjudligi tajriba-sinovlari asosida isbotlangan;

Venger karp balig'ining reproduktiv ko'rsatkichlari sifati, urg'ochilarning o'rtacha mutlaq serpushtligi 886,7 ming dona bo'lib, Ukrain karplarga nisbatan 254,7 ming dona uvuldiriqqa ko'pligi aniqlangan;

ilk marotaba Venger karp zoti erkagi bilan Ukrain karp zoti urg'ochisini chatishtirish asosida mahsuldor, kasalliklarga chidamli gibril chavoqlar olingan va ularning iqtisodiy samaradorligi ochib berilgan;

Venger karp zoti erkagi Ukrain karp zoti urg'ochisi bilan chatishtirish asosida

olingan gibrid chavoqlarining chiqishi 80% ni tashkil qilishi va 242-360 ming dona baliq chavoqlari olish mumkinligi aniqlangan hamda chavoqlarining o'rtacha vazni 40-50 g gacha oshganligi aniqlangan;

bir yillik gibrid baliqlarning o'sishining ortishi o'rtacha 442,45 g ga, vazni o'rtacha 9,91 marta oshirish mumkinligi isbotlangan;

gibrid va gibrid bo'lmagan lichinkalardan olingan foyda I-nazorat guruh baliqlarda 31,9 %, II-tajriba guruhidagi baliqlarda 34,8 % tashkil etishi, III-tajriba guruhidagi baliqlarda 33,1% ga to'g'ri kelishi, rentabellik darajasi gibrid lichinkalarda 2,9 % ga ko'p bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sun'iy hovuzlar sharoitida Venger karp balig'ining holati va rivojlanish bosqichlari xususiyatlariga oid ma'lumotlar asosida ularning mahsuldorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

Venger karp balig'ining jinsiy voyaga yetishi va serpushtlik ko'rsatkichlari baholangan;

Venger karp balig'ini intensiv usulda mahalliy omuxta yem va qo'shimcha ozuqalar bilan oziqlantirish tajriba-sinovidan o'tkazilgan va baliq semizlik darajasini oshirish hisobiga sermahsul baliq mahsulotlari olishga erishilgan.

Venger karp balig'ini Ukrain karpi zoti bilan chatishtirish orqali mahsuldor, kasalliklarga chidamli gibrid chavoqlarni olish usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Zamonaviy tadqiqot usullarining qo'llanilganligi, olingan natijalar hamda yuritilgan birlamchi hujjatlarga, dissertatsiya ishining natijalari har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi aprotatsiya komissiyalari tomonidan ijobiy baholanganligi, tadqiqotlar yakunida olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining respublika va chet ellarda o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilganligi va ma'qullanganligi olingan natijalarning ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'rganilgan Venger karp balig'i baliqchilik-biologik ko'rsatkichlari va o'sish xususiyatlarining mintaqamiz sharoitiga moslashishi hamda urg'ochi baliqlarning jinsiy voyaga yetish, serpushtligining oshishi va yashovchanligining o'sish sur'atiga bog'liq ekanligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarinig amaliy ahamiyati Venger karp balig'i Ukrain karpi zotlari yosh nisbatlari hisobga olingan holda chatishtirish orqali olingan gibrid lichinkalarining chiqish ulushi ortganligi hamda baliq yetishtirishning texnologik bosqichlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Venger karp (*Cyprinus carpio* L.) balig'ini intensiv usulda yetishtirishning texnologik asoslari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Baliqchilikda yuqori mahsuldor zotlarni yaratishning samarali gibridizatsiya usullari Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi "Khorrot fish house" UK ho'jaligi

amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 17-oktabrdagi 02/22-05/5294-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Venger" zotli karp baliq'ining erkagi bilan, "Ukrain" karpining urg'ochisi chatishtirilishidan olingan gibriddagi lichinkalar chiqishi 80 % ni tashkil qilib 360 000 dona hamda "Ukrain" karpining erkagi bilan "Ukrain" karpining urg'ochisi chatishtirilishidan olingan gibriddagi bo'lmagan lichinkalar chiqishi 80 % ni tashkil qilib 242 000 dona baliq chavoqlari olishga erishilgan. Lichinkalarning yashovchanligi gibriddagi bo'lmagan lichinkalarga nisbatan 118 000 donani va 0,15 % ga yuqori bo'lishi kuzatilgan. Olingan iqtisodiy samaradorlik 175 000 so'mni tashkil etgan;

gipofiz ineksiyasiga ijobiy javob beradigan va oson ikra beradigan "Venger" karp urg'ochi baliqlarining mutlaq va nisbiy serpushtlik ko'rsatkichlarini oshirish usuli Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi "Damachi baliq" MCHJ ho'jaligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 17-oktabrdagi 02/22-05/5294-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Venger" karp urg'ochi baliqlarining o'rtacha mutlaq serpushtligi 886,7 ming dona uvuldiriqni, "Ukrain" kaprlarida 632,0 ming dona uvuldiriqni hamda ularning o'sish ko'ratkichlari "Ukrain" karplarga nisbatan 254,7 ming dona uvuldiriqni, nisbiy serpushtligi – 22,2 dona uvuldiriqni tashkil etgan. Bunda lichinkalarning iqtisodiy samaradorligi 12,8 % ga oshishiga erishilgan;

suv hovuzlarda baliqlarni o'stirish uchun harorat, gidrokimyoviy rejim, tabiiy ozuqa bazasini shakllantirish usuli Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi "Chinoz white fish" MCHJ ho'jaligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 17-oktabrdagi 02/22-05/5294-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, gibriddagi va gibriddagi bo'lmagan baliq chavoqlarining o'rtacha vazni 42-53 grammni tashkil etib, gibriddagi bo'lmagan chavoqlarga nisbatan 8-11 grammga va 15 % ga o'sishi yuqoriligi aniqlangan. Gibriddagi lichinkalarning iqtisodiy samaradorligini 1 575 000 so'mga oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etish tavsiya qilingan jumallarda 8 ta maqola, shulardan 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda, nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar va qisqartmalar, o'lehov birliklar atamalar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 98 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Baliqchilikning rivojlanish tarixi va istiqbollari, karp zotlari va ularning xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida baliqlarni o'rganish bo'yicha dastlabki ma'lumotlar, baliqchilikning rivojlanish tarixi va istiqbollari, karp balig'ining madaniy, xonakilashtirilgan shakllari, zotlarini o'rganilishiga hissa qo'shgan olimlarning ishlari, karp zotlari bo'yicha olib borilgan seleksiya va naslchilik ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, 2019-2023 yillar davomida Baliqchilik ilmiy-tadqiqot institutiga (Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani) qarashli laboratoriyalarda, kichik tajriba va kichik innovatsion hovuzlarda, basseynlarda hamda yopiq aylanma suv ta'minoti qurilmalarida olib borilgan tadqiqot materiallari, tajribalar va qo'llanilgan uslublar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Tajribalarda hovuzlarda yetishtirilayotgan tana uzunligi 8-76 sm va umumiy og'irligi 11-8800 gramm, +1-+5 yoshli 47 dona mahalliy, 60 dona Ukrain va 53 dona Venger karp zotlari hamda qo'shimcha ravishda 2020 yil aprel oyida Samarqand viloyati Ishtixon tumani “Al-Said” fermer xo'jaligidan 500 dona olib kelingan Venger karp chavoqlari va +1-+3 yoshli zotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishlari va tajribalar baliqchilik, gidrobiologiya va gidrokimyoda umumiy qabul qilingan standart usullarda olib borildi (I.F.Pravdin, 1966; O.A.Alekin, 1970; F.G.Martishev, 1973; A.S.Konstantinov, 1986; Y.A.Privezensev, 2000; A.M.Nikanorov, 2001; O.A.Kotlyar, 2004; S.S.Grigoryev, N.A.Sedova, 2008; A.V.Polyakova, 2009; Ye.P.Miroshnikova, 2010; A.Voynarovich, 2011; L.P.Rijkov, 2011; I.V.Bubir va boshq., 2014; N.V.Barulin, O.V.Usova, 2016; Z.A.Mustafayeva va boshq., 2017).

Baliqlarning serpushtligi umumiy qabul qilingan usullar asosida aniqlandi (O.F.Sakun, N.A.Buskaya, 1968; V.D.Spanovskaya, V.A.Grigorash, 1976).

Jinsiy voyaga yetgan urg'ochilardan ikra olishda baliqlarni sun'iy urug'lanishini o'tkazish usullari va chizmalariga amal qilingan holda olib borildi (Sbornik nauchno-texnologicheskoy ..., 2006; Ye.V.Tarazevich va boshq., 2005). Ikralarning yetilishini tezlashtirish uchun karp gipofiz bezlarining atsetonlangan suspenziyasi ishlatildi. Inkubatsiya Veys apparatida amalga oshirildi. Urchitishda eng mahsuldor 4-6 yoshli urg'ochi baliqlardan foydalanildi.

Erkak baliqlar spermatozoidlarning sifati (harakatchanlik darajasi) G.M.Persov (1953) shkalasi bo'yicha aniqlanadi.

Zooplankton namunalarini olish va ishlov berish umumiy qabul qilingan standart usullar yordamida amalga oshirildi (V.I.Jadin, 1949, 1952, 1960; I.A.Kiselev, 1969; A.S.Konstantinov, 1986).

Statistik ko'rsatkichlar umumiy qabul qilingan usullar bo'yicha hisoblab chiqilgan [P.F.Rokitskiy, 1973; S.E.Mastitskiy, 2009].

Dissertatsiyaning **“Venger karp balig'ini intensiv usulda yetishtirish”** nomli uchinchi bobi to'rt bo'lim va kichik bo'limlardan iborat bo'lib, unda venger

karp balig'ini intensiv usulda yopiq aylanma suv ta'minoti qurilmalarida, kichik innovatsion hovuzda va hovuzlarga zooplankton organizm kiritish orqali yetishtirish hamda venger karp balig'ining gematologik tahlili bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning 3.1-bo'limi venger karp balig'ini intensiv usulda yopiq aylanma suv ta'minoti qurilmalarida yetishtirishga bag'ishlangan bo'lib, unda yopiq aylanma suv ta'minoti qurilmalarida "Bactovit uz" biopreperatini venger karpi chavoqlarini o'stirishdagi tajriba natijalari keltirilgan.

Tadqiqotlar 45 kun davomida olib borildi. Baliqlar hajmi 2 m³ bo'lgan basseynlarda o'stirildi. Xar bir basseynga 150 dona o'rtacha og'irligi 35-40 g bo'lgan baliq chavoqlar solingan. Tajribalarda: A – basseynida nazoratdagi baliqlar, V – basseynida "Bactovit uz" biopreparatining quruq moddasi yemga qo'shilgani (1 kg omuxta yemning 5% miqdorida), S – basseynida "Bactovit uz" biopreparati suspenziyasini (1 kg omuxta yemning 5% miqdorida) yemga qo'shilgan holda sinaldi.

Tadqiqotning natijalari tahliliga ko'ra "V" guruhdagi baliqlarda eng yuqori o'sish ko'rsatkichi aniqlandi. Ushbu guruhdagi baliqlar "A" va "S" basseynlarga nisbatan 9,1 va 7,1 g ga mos ravishda ko'p vazn oldi. Kunlik o'rtacha vazn ortishi, g/sutka "A" va "S" guruhlarda 1,27 va 1,34 ni tashkil etdi. Ozuqa koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan holat "A" basseyndagi baliqlarda kuzatilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2,4 ni tashkil etdi. "V" guruhdagi baliqlar ozuqasiga baliqlarning ovqat hazm qilishini yaxshilovchi, samaradorligini hamda ularning mahsuldorligini oshiruvchi mahalliy mikroorganizmlar asosida yaratilgan oqsilga boy va fermentli ozuqa yem qo'shimchasi "Bactovit uz" biopreparatning quruq moddasi qo'shib berish hisobiga erishildi. Ushbu guruhdagi baliqlar nazoratdagi baliqlarga nisbatan o'sish ko'rsatkichlari ijobiy farqlandi. "S" guruhdagi baliqlarga mazkur biopreparatlarning suspenziyasini qo'shib berilganda nazoratdagi baliqlarga nisbatan o'sish ko'rsatkichlarida sezilarli farq bo'lmadi. Tajriba davomida hech qaysi basseynida baliqlar nobud bo'lishi kuzatilmadi.

Bobning 3.2-bo'limi venger karp balig'ini intensiv usulda kichik innovatsion hovuzda yetishtirishga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot doirasida yuqori sifatli (200 g dan katta) chavoqlar hamda tovar baliq bo'lguniga qadar o'stirish maqsadida yetishtirilgan chavoqlarni ochiq hovuzlarga intensiv o'stirishga o'tkazdik.

Hovuzga baliqlar 2021 yil 30 may kuni solinib, jami baliqlar soni 3500 donani umumiy og'irligi esa 135 kg ni tashkil etdi. Tajribdagi baliqlar kuniga 4 mahal mahalliy omuxta yem hamda qora livinka (*Hermetia illucens*) (Black soldier fly larvae) tirik ozuqa organizmi bilan oziqlantirib borildi.

Intensiv o'stirish havzalariga tashlangan baliqlar boshlang'ich umumiy biomassasi 135 kg tashkil etgan bo'lsa tajriba yakunida 1138 kg ni tashkil etdi. Ozuqa sarfi 1 kg baliq uchun 2,5 kg omuxta yem va 0,9 kg tirik ozuqa (*Hermetia illucens*) ishlatildi. Tajriba davomida baliqlarni nobud bo'lishi umumiy sonidan 5% ni tashkil etdi. Baliqlar individual tirik vazni 350-500 g ni tashkil etdi. Intensiv o'stirish hovuzida venger karp balig'ini mahalliy omuxta yem va qo'shimcha qora askar pashshasi lichinkalari (*Hermetia illucens*) bilan tirik ozuqa sifatida oziqlantirish ularning individual tirik vaznini 350-500 grammga oshirish


imkoniyatini yaratdi.

Mazkur bobning 3.3-bo'limi hovuzdagi zooplankton organizmlarining holatini baholash va venger karp balig'i chavoqlarini zooplankton organizmlarni kiritish orqali yetishtirishga bag'ishlangan bo'lib, unda hovuzdagi zooplankton organizmlarining miqdor va sifat ko'rsatkichlari, laboratoriya sharoitlarida zooplankton organizmlarni yetishtirish va hovuzga zooplankton organizmlarni kiritish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot natijasida hovuzlarda zooplankton organizmlarning 14 turi (4 tur Rotifera, 6 tur Cladocera, 4 tur Copepoda) aniqlangan. Vegetatsiya davrida turlarning o'zgarishi 8-13 tagacha kuzatilgan bo'lsa-da, 2-6 tur ommaviy rivojlanishga olib keldi, ularning o'rtacha soni va biomassasi mos ravishda 4877,7 ekz./m³ va 0,113 g/m³ ni tashkil etdi.

2020 yil 15 may kuni inkubatsiya jarayoni boshlandi, karp lichinkalari zavod usulida olindi. 25 may kuni Vayss apparatlaridan birida 5000 ta karp lichinkalari tanlab olindi. Tajriba uchun tayyorlangan hovuzga "dafniya handag'ida" yetishtirilgan zooplankton (*Daphnia magna*) kiritildi. 25 may kuni hovuzga o'rtacha 37,9 mg hajmga ega karp lichinkalari tashlandi.

Hovuzlarda zooplankton organizmlarini kiritish orqali baliq yetishtirish bo'yicha olib borilgan tajribalar natijasida venger karp balig'i tez o'sganligi va sentabr oyida uning o'rtacha vazni 40 g gacha yetganligi kuzatildi (1-rasm). Baliqchilik xo'jaliklarida esa bu ko'rsatkich noyabr oyida 25 gramni tashkil qilgan.



1-rasm. Venger karp balig'ining yoz va kuz oylarida o'sishi

Bobning 3.4-bo'limida venger karp balig'ining gematologik morfo-biokimyoviy tahlili keltirilgan. Venger karp balig'i gematologik umumiy tahlili eritrotsitlardagi gemoglobinning o'rtacha miqdori bir oz balandligi va aksincha eritrotsitlardagi gemoglobinning o'rtacha miqdori hamda gematokritning pastligini ko'rsatdi. Bu davrda (2022 yil iyul) hovuzdagi suvning harorati yuqori bo'lganligi

sababli baliqlar oziqlanishi pasaydi. Natijada, qondagi eritrotsitlar soni kamaydi, bu eritrotsitlardagi gemoglobinning o'rtacha miqdor va gematokritning bir vaqtning o'zida pasayishini tasdiqlaydi. Baliqlardagi metabolik jarayonlarning holatini tavsiflovchi biokimyoviy qon parametrlari ovqat hazm qilish yetishmovchiligi bilan bog'liq turli xil kasalliklarini erta tashxislash uchun ishlatilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Venger karp balig'ining biologik xususiyatlari va uni yetishtirishning texnologik jarayonlari”** nomli to'rtinchi bobi bir bo'lim va to'rt kichik bo'limlardan iborat bo'lib, unda venger karp balig'ining baliqchilik-biologik va reproduktiv xususiyatlari, reproduktiv ko'rsatkichlari sifatini oshirish va gibrid lichinkalarni olish, tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Mazkur bobning 4.1-bo'limida Venger karp balig'ini intensiv usulda yetishtirishning texnologik asoslariga bag'ishlangan bo'lib uning to'rt kichik bo'limlarida venger karp balig'ining baliqchilik-biologik va reproduktiv xususiyatlari, ularning reproduktiv ko'rsatkichlari sifatini oshirish va gibrid lichinkalarni olish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Bizning tadqiqot natijalariga ko'ra, Venger karp balig'ining yelka suzgich qanotidagi shu'lalar soni III-IV 19-22 tani, anal suzgich qanotida esa III 6-7 ta ni tashkil qildi. Yon chizig'idagi tangachalar soni 36-37 ta, oyquloqning birinchi yoyidagi jabra ustunchalarining soni 22-24 tani tashkil etdi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, olib kelingan venger karp balig'ining morfometrik belgilari variatsiya koeffitsiyenti 3,40-10,73% gacha o'zgaruvchanlikni namoyon etdi.

Venger karp balig'ining reproduktiv xususiyatlarini har tomonlama o'rganish maqsadida texnologik siklning turli bosqichlarida ota-ona baliqlarning naslechilik va mahsuldorlik xususiyatlari bo'yicha baholandi. Bunda ikra inkubatsiyasi, lichinkalarni yetishtirish, voyaga yetmagan va tovar baliqlarni yetishtirish, shuningdek, ko'payish uchun mahsuldorligi va hayotchanligi yuqori bo'lganlarini tanlab olindi. Bu Venger karp balig'ining reproduktiv ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

Tadqiqotlar natijasida venger karpi podasining sifat holatini sinf jihatidan ko'rib chiqildi. Sinflar bo'yicha venger karpi ota-ona baliqlari guruhini ajratish orqali quyidagi natijalarga erishildi:

Urg'ochi baliqlar	1-sinf	17 %
	2-sinf	59 %
	yaroqsiz	24 % to'da;
Erkak baliqlar	1-sinf	15 %
	2-sinf	50 %
	yaroqsiz	35 % to'da.

Sinf bo'yicha ajratilgan guruhlardagi ota-ona baliqlar to'dasining eksteryer (tashqi) belgilari nasl olish uchun yetarli darajada yaxshilanganligini ko'rsatdi.

(1-jadval) venger karpi ota-ona baliqlarining baliqchilik-biologik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Venger karpining baliqchilik-biologik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	4-5 yoshli venger karp zoti					
	urg'ochilari			erkaklari		
	o'lchamlar	o'rtacha	Cv, %	o'lchamlar	o'rtacha	Cv, %
<i>l, sm</i>	49,0-67,0	56,9	12,8	47,5-58,0	54,7	11,3
<i>W, kg</i>	3,9-8,7	5,7	31,5	2,6-6,7	4,1	26,9
<i>l/H</i>	2,7-3,8	3,3	7,9	2,0-3,1	2,9	7,6
<i>H/l, %</i>	28,1-38,0	33,9	7,3	25,9-36,7	32,8	7,1

Venger karp zoti baliq'ini ko'paytirish bo'yicha ishlarni boshlashdan oldin urchitish uchun ota-ona baliqlarni saralab olindi. Saralab olingan ota-ona baliqlar orasidan tashqi ko'rinishi yuqori baholangan, morfometrik belgilari ko'rsatkichlari optimal bo'lgan, jinsiy jihatdan voyaga yetgan, sermahsul urg'ochilarni ajratib olindi (2-jadval).

Saralangan ota-ona baliqlar va ikra inkubatsiyasini baholash bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar

Baliq jinsi	Vazni, kg	Tana uzunligi, sm	Bir urg'ochi uchun ikralar soni, g	Urug'lan-tirish, %
Urg'ochilar	5,9	51,5	334	15,3
Erkaklar	4,5	48,2	-	-


Jinsiy voyaga yetgan venger karp zoti baliq'ining semizlik koeffitsiyenti (Fulton bo'yicha) baliq tanasi uzunligi va vazniga ko'ra urg'ochilarida 2,48-2,87 gacha, erkaklarida esa 1,79-2,13 gacha tebranib turadi (3-jadval).

Venger karp zoti baliq'ining tana ko'rsatkichlari va semizlik koeffitsiyentining (Fulton bo'yicha) o'zgaruvchanligi

Yoshi	Jinsi	<i>l, sm</i>		<i>W, g</i>		<i>CK_F</i>	
		<i>M±m</i>	<i>Cv±m_{Cv}</i>	<i>M±m</i>	<i>Cv±m_{Cv}</i>	<i>M±m</i>	<i>Cv±m_{Cv}</i>
3+	urg'ochi	26,0±4,3	10,1±0,9	785±7,1	10,3±0,7	2,50±0,3	7,5±0,1
	erkak	25,1±3,7	16,4±1,6	656±9,3	13,1±0,9	1,79±0,2	6,6±0,5
4+	urg'ochi	37,0±5,5	12,3±1,3	910±4,8	18,8±1,1	2,48±0,4	3,5±1,0
	erkak	30,9±6,4	18,1±2,7	833±6,5	14,4±0,6	2,13±0,6	9,4±0,9
5+	urg'ochi	43,2±2,7	9,2±1,5	1750±10,3	16,2±1,7	2,87±0,1	10,3±0,7
	erkak	40,5±4,8	12,3±1,1	1680±11,4	12,3±2,1	1,93±0,3	8,4±1,1


Olib borilgan tadqiqot natijasida venger karpining tana uzunligi va vazni o'rtasida o'zaro kuchli korrelyatsion ($r = 0,936$; $P < 0,05$) bog'liqlik mavjudligi aniqlandi (2-rasm).

Venger karpining biologik ko'rsatkichlarini aniqlashda 2-6 yoshli jinsiy voyaga yetgan vakillaridan foydalanildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, baliq tanasining uzunligi 40,1-60,0 sm va vazni 889-7045 gramm bo'lgan urg'ochilarda individual mutlaq serpushtligi 91318-803210 ikrani, ikralar diametri esa 0,7-1,8 ni tashkil qildi. Urg'ochi karplarning jinsiy mahsulotlarining yetuklik darajasi esa 9,5-16,1 foizni tashkil qildi.



2-rasm. Venger karpining tana uzunligi va vaznining o'zaro bog'liqligi

Venger karp baliq'ining individual mutlaq serpushtligini baholash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, baliqning jinsiy mahsulotlarining yetuklik darajasi, tana uzunligi va vaznining ortib borishi bilan mos ravishda mutlaq serpushtlikning oshib borishi aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Venger karp baliq'i individual mutlaq serpushtligining baliq jinsiy mahsulotlarining yetuklik darajasi bilan bog'liqligi

Tadqiqotlarimiz natijasida texnologik siklning turli bosqichlarida (ikra inkubatsiyasi, lichinkalar o'stirish, yosh baliqlarni yetishtirish, tovar baliqlarni yetishtirish) baliqlarni ko'paytirish ishlarini olib borish uchun ularning serpushtligi

va yashovchanligi yuqori bo'lganlari tanlab olindi. Bu Venger karpining reproduktiv ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi (4-jadval).

4-jadval

Venger karpi urg'ochilarining reproduktivlik sifati

Zot	Yoshi	Vazni, kg	Ikra olingan urg'ochilar, %	Serpustlik, ming dona		Urug'lantirish, %	Lichinkalar chiqishi, ming dona
				mutlaq	nisbiy		
<i>MK</i>	4+	5,0±0,41	84,0	632,0	126,1	83,5	235,0
<i>VK</i>	4+	6,2±0,32	93,0	886,7	148,3	93,0	356,0

Izoh: MK – mahalliy karp zoti, VK – venger karp zoti

Natijada, gipofiz ineksiyasiga ijobiy javob beradigan va oson ikra beradigan venger karpi urg'ochilarning ulushi sezilarli darajada oshdi. Mutlaq va nisbiy serpushtlik sezilarli darajada o'sdi. Venger karpi urg'ochilarning o'rtacha mutlaq serpushtligi 886,7 ming dona ikrani, uning o'sish ko'rsatkichi esa mahalliy karplarga nisbatan 254,7 ming dona ikrani, nisbiy serpushtligi bo'yicha – 22,2 dona ikrani tashkil etdi. Venger karpi urg'ochilari serpushtligini va ikralarning otalanishini oshirish lichinkalar chiqishini (hosildorligi) sezilarli darajada yuqori bo'lishini ta'minladi. Bunda lichinkalarning hosildorligi 12,8% ga oshdi.

Venger karp balig'i erkaklarining reproduktiv xususiyatlari uch va besh yoshli baliqlar misolida o'rganildi (5-jadval).

5-jadval

Venger karp balig'i erkaklarining reproduktiv xususiyatlari

Belgilar	Uch yoshli erkak karplar		Besh yoshli erkak karplar	
	$M\pm m$	$Cv\pm m_{Cv}$	$M\pm m$	$Cv\pm m_{Cv}$
Eyakulyatsiya hajmi, ml	54,5±7,12	31,8±7,95	53,8±8,07	76,0±17,44
Spermalarning faolligi, sek.	48,3±2,55	15,9±3,27	47,4±2,59	16,0±3,32
Spermatozoidlarning harakatchanligi, ball	4,3±0,33	13,6±4,13	3,7±0,36	17,8±4,67

Reproduktiv xususiyatlarning o'rtacha ko'rsatkichlariga ko'ra, uch yoshli erkak baliqlar bir-biridan sezilarli darajada farq qildi va belgilar o'zgaruvchanligining yuqori darajasi bilan ajralib turdi. Uch yoshli erkaklarda eyakulyatsiya hajmi o'rtacha 54,5 ml ($Cv = 31,8\%$), ba'zilarida 70-80 ml ga yetdi. Besh yoshli karplarda bu belgining o'rtacha qiymati 53,8 ml, variatsiya koeffitsiyenti eng yuqori bo'ldi va 76,0% ni tashkil etdi. Spermalarning faolligi (oldinga siljish vaqti) ba'zilarida 36-60 sekundni tashkil qildi, bu belgining o'rtacha qiymatlari va uning o'zgaruvchanlik darajasi uch yoshli va besh yoshli venger karp erkaklarida taxminan bir xil bo'ldi. Spermatozoidlarning harakatchanligi 3-5 ball bilan baholandi va uch yoshli baliqlarda o'rtacha 4,3 ball, besh yoshli baliqlarda esa 3,7 ballni tashkil etdi (5-jadval).

Yuqori mahsuldor zotlarni yaratishning samarali usullaridan biri baliq gibridizatsiyasidir. Venger karp balig'ining reproduktiv sifatini oshirish va gibrid lichinkalarni olish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda urg'ochilarni baholash

uchun (ishchi va nisbiy serpushtlik, ikralar vazni va diametri, urug'lanish, lichinkalarning mahsuldorligi va sifati) olingan ikralar 3-4 ta erkak baliqlardan olingan spermalar bilan urug'lantirilib, inkubatsiya qilindi.

Tadqiqotlar natijasida 4 yoshli venger zotli karp balig'ining erkagini ($M = 3,4$ kg, $L = 40$ sm, $l = 35$ sm, $H = 17$ sm) 5 yoshli ukrain karpining ($M = 3,5$ kg, $L = 47$ sm, $l = 41$ sm, $H = 15$ sm) urg'ochisi bilan, gormonal preparat (gipofiz) asosida ineksiya qilinib, olingan 0,45 kg uvuldiriq 5 mg urug' bilan otalantirildi. Bu tajriba asosida gibrilichinkalari olindi. Gibril holdagi lichinkalar chiqishi 80 % ni yoki 360 000 donani tashkil etdi (6-jadval).

6-jadval

Tajribadagi urg'ochi baliqlarning reproduktiv sifati

Zot	Vazni, g	Ikra olingan urg'ochilar	Ishchi serpushtlik		Urug'-lantirish, %	Lichinkalar chiqishi, ming dona
			mutlaq	nisbiy		
VK	5,3±0,57	92,0 %	739,0	135,0	80,0	360,0
UK	5,5±0,38	85,7 %	724,1	127,0	80,0	242,0

Izoh: VK – venger karp zoti, UK – ukrain karp zoti

Keyingi tajribalarda ukrain karp balig'ining 4 yoshli erkagi ($M = 2,5$ kg, $L = 44$ sm, $l = 39$ sm, $H = 14$ sm) bilan 4 yoshli ukrain karpining ($M = 2,9$ kg, $L = 46$ sm, $l = 41$ sm, $H = 16$ sm) urg'ochisi chatishtirildi. Olingan 0,3 kg uvuldiriq 5 mg urug' bilan otalantirildi. Lichinkalar chiqishi 80% ni yoki 242 000 donani tashkil etdi.

Olingan gibrilichinkalarni 6 oy (may-oktabr oylari) davomida o'stirish natijasida, ushbu chavoqlarning o'rtacha vazni 40-50 grammni, gibril bo'lmagan chavoqlarning o'rtacha vazni 30-40 grammni tashkil etdi.


7-jadval

Yetishtirilgan gibril baliqlar vaznining ortishi


№	2022 yil oktabr oyida basseynga o'tkazilgan olti oylik gibril lichinkalar			2023 yil may oyida yetishtirilgan bir yillik gibril baliqlar			O'sishning ortishi ko'rsatkichi, g	Vaznining o'shishi (marta)
	n	vazni		n	vazni			
		umumiy, kg	o'rtacha, g		umumiy, kg	o'rtacha, g		
1.	83	3,3	40,0	32	13,2	412,7	372,7	10,31
2.	203	9,8	45,0	84	40,1	483,8	438,8	10,75
3.	179	9,0	48,0	118	59,1	497,0	449,0	10,35
4.	84	4,9	50,0	49	27,4	559,3	509,3	11,18
Jami	549	27,0	45,7	283	139,8	488,2	442,45	9,91

Tajriba davomida 2022 yil oktabr oyida basseynga o'stirish uchun o'tkazilgan 549 dona 40-50 grammni tashkil qilgan gibril lichinkalar 2023 yil may oyida ovlanib tahlil qilindi. Natijada bir yillik gibril baliqlarning vazni o'rtacha 488,2 g, guruhlarda 412,7 dan 559,3 g gacha bo'ldi. Bir yillik gibril baliqlarning o'sishning ortishi ko'rsatkichi 372,7-509,3 (o'rtacha – 442,45) g, vazni esa o'rtacha 9,91 (10,31-11,18) marta oshganligi aniqlandi (7-jadval, 4-5-rasmlar). Gibrildar

bo'yicha tadqiqotlar, ular yetishtirishning barcha bosqichlarida yashovchanligi bo'yicha ota-ona baliqlardan ancha yuqori hamda o'sish sur'ati bo'yicha hayotning birinchi yilida biroz tezroq ekanligini ko'rsatdi.




4-rasm. Yetishtirilgan gibridd baliqlar vazni o'sishining ortishi ko'rsatkichlari



5-rasm. Yetishtirilgan gibridd baliqlar vaznining o'sish ko'rsatkichlari

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki venger zotli karp balig'i ukrain karp balig'i bilan chatishtirilganda yuqori natijalarga erishildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy karp zotlari (venger va ukrain) resurslaridan chatishtirish orqali foydalanish ota-ona formalarining eng yaxshi xususiyatlarini (yuqori o'sish

sur'ati, intensiv yetishtirish usuliga yaroqliligi) qamrab olgan yangi gibriz zot yaratish imkonini berdi. Buning natijasida baliqlarni intensiv usulda yetishtirishning – urchitish, chavoq boqish, va o'stirish jarayonlaridan iborat texnologik jarayonlar yaratildi (6-rasm).



6-rasm. Intensiv usulda venger karp zotini yetishtirishning texnologik jarayonlari

Venger karp balig'ini intensiv usulda yetishtirishning texnologik asoslarini yaratish maqsadida olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida 5 qismdan (saralash, chatishtirish, nasl olish, chavoqlarni yetishtirish, tovar baliqlarni yetishtirish) iborat bo'lgan texnologik jarayonlar asoslandi. Kelib chiqishi turli xil (ukrain va venger) karp zoti urg'ochilarining serpushtlik darajasining yuqori o'zgaruvchanligi aniqlandi. Bu esa yuqori mahsuldorlik bilan ajralib turadigan ona baliqlarni tanlash va shakllantirish hamda yuqori serpusht urg'ochilardan gibriz nasl olish imkonini berdi.

XULOSA

“Venger karp (*Cyprinus carpio* L.) balig'ini intensiv usulda yetishtirishning texnologik asoslari” mavzusidagi qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Hovuzlarda zooplankton organizmlarning 14 turi (4 tur Rotifera, 6 tur Clodocera, 4 tur Copepoda) aniqlandi. Vegetatsiya davrida turlar soni 8-13 tagacha o'zgargani kuzatilgan bo'lsa-da, asosan 2-6 tur rivojlanishiga olib keldi.

2. Venger karp balig'i chavoqlarini intensiv usulda mahalliy omuxta yem bilan oziqlantirishda qo'shimcha ravishda "Bactovit uz" biopreperatini qo'llash orqali o'stirish nazoratga nisbatan vaznning kunlik o'rtacha ortishi sutkasiga 0,3 grammni tashkil qiladi.

3. Intensiv o'stirish hovuzida Venger karp balig'ini mahalliy omuxta yem va qo'shimcha qora askar pashshasi lichinka (*Hermetia illucens*) tirik ozuqa organizmi bilan oziqlantirish ularning individual tirik vaznini 350-500 grammga oshirish imkoniyatini yaratdi va baliq semizlik darajasini oshirish hisobiga sermahsul baliq mahsulotlari olinadi.

4. Ko'paytirish asosida yaratilgan zooplankton organizmlar hovuzga kiritish orqali yetishtirilayotgan Venger karpi chavoqlarining vaznini amaldagi 15-25 g dan 40 g gacha oshadi.

5. Venger karp balig'ining reproduktiv xususiyatlari, urg'ochilarning o'rtacha mutlaq serpushtligi 886,7 ming dona uvuldiriq, uning o'sish ko'rsatkichi esa Ukrain karplarga nisbatan 254,7 ming dona uvuldiriqga ko'pligi aniqlandi va ikralarning urug'lanishini oshirish lichinkalar chiqishini (hosildorligi) 12,8% ga oshirishni ta'minlaydi.

6. Kelib chiqishi turli xil bo'lgan (Venger va Ukrain) karp zoti urg'ochilarining serpushtlik ko'rsatkichlarining yuqori o'zgaruvchanligi aniqlandi va serpusht urg'ochilardan mahsuldor, kasalliklarga chidamli gibril chavoqlar olindi hamda ularning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'ladi.

7. Venger karp zoti erkagi Ukrain karp zoti urg'ochisi bilan chatishtirish asosida olingan gibril lichinkalarining chiqishi 80% ni tashkil qildi va 242-360 ming dona baliq chavoqlari olish imkonini beradi.

8. Venger karp balig'ini intensiv usulda mahalliy omuxta yem bilan oziqlantirish orqali baliq semizlik darajasini oshirish hisobiga gibril chavoqlarining o'rtacha vaznini 40-50 grammgacha oshirish imkoni yaratildi va sermahsul baliq mahsulotlari olinadi.

9. Tajriba asosida bir yillik gibril baliqlarning vazni o'rtacha 488,2 gramm, guruhlarda 412,7 dan 559,3 grammni tashkil qilishi aniqlandi. Bir yillik gibril baliqlar o'sishining ortishi o'rtacha 442,45 grammga va vazni o'rtacha 9,91 marta oshadi.

10. Jami yetishtirilgan gibril va gibril bo'lmagan lichinkalardan olingan foyda I-nazorat guruh baliqlarda 31,9 %, II-tajriba guruhidagi baliqlarda 34,8 % tashkil etgan bo'lsa, III-tajriba guruhidagi baliqlarda esa 33,1 % ga to'g'ri kelib, rentabellik darajasi bo'yicha esa, II-tajriba guruhidagi Venger karp balig'idan olingan gibril lichinkalarda 2,9 % ga ko'p bo'lishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РъD.05/30.12.2019.Qx.13.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ РЫБОВОДСТВА

ТЕМИРОВА НИЛУФАР ТАДЖИНОРОВНА

**ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫРАЩИВАНИЯ ВЕНГЕРСКОГО
КАРПА (*CYPRINUS CARPIO L.*) ИНТЕНСИВНЫМ СПОСОБОМ**

06.02.03-Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РъD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинет Министров Республики Узбекистан за B2021.1.PhD/Qx742.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Научно-исследовательском институте рыбоводства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdau.uz), Республиканская научная сельскохозяйственная библиотека, Национальное информационное агентство Узбекистана а также на информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: Кузметов Абдулахмет Раймбердиевич
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Камиллов Бахтияр Ганиевич
доктор биологических наук, профессор

Собиров Жобир Жамолович
кандидат биологических наук, (PhD) старший научный сотрудник,

Ведущая организация: НИИ животноводства и птицеводства

Защита диссертации состоится «31» Мая 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета по присуждению ученой степени PhD.05/30.12.2019.Qx13.02 при Ташкентском государственном аграрном университете (Адрес: 100174, г.Ташкент, ул. Университетская, 2-дом Тел.: (+99871) 289-04-65; факс: (+99871) 289-10-60; e-mail: tuag-info@edu.uz) административный здание Ташкентского государственного аграрного университета. 2 этаж конференц-зал).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрировано за №. 550722). Адрес: 100174, г.Ташкент, ул. Университетская, дом 2. ИРЦ ТашГАУ, 1-этаж. Тел.: (+99871) 260-50-43.

Автореферат диссертации разослан 17.05 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 01 от «09» Апреля 2024 года.


Ш.Р.Умаров
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней,
д.с.х.н., профессор
Х.А.Донаев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней,
д.с.х.н., (PhD) доцент
А.Газиёв
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней,
д.с.н., с.н.с.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. На сегодняшний день потребляемое в мире среднее количество рыбного мяса на душу населения в год составляет 22-24 кг. «Согласно рекомендации Всемирной организации здравоохранения определено, что в целях профилактики дефицита витаминов (йода, кальция и других быстро усваиваемых белков) в организме человека в среднем в течение года следует употреблять 12-16 кг мяса рыбы»¹. Это, в свою очередь, требует разработки интенсивных технологий выращивания рыбы в условиях наличия нехватки естественной кормовой базы рыб, развития селекции, создания устойчивых к заболеваниям и продуктивных пород рыб при ограниченных водных ресурсах. В настоящее время расширение применения исследований, направленных на искусственное разведение и повышение хозяйственно-ценных признаков выращиваемой в нем рыбы, рассматривается как проблема в мировом масштабе.

В последние годы уделяется большое внимание улучшению качества плодовитости и продуктивности рыб, созданию генофонда новых рыб и его сохранению, получению пород с новыми полезными генетическими признаками. В этой связи, оценка состояния выращиваемых в прудах пород рыб, улучшение их качественных показателей и племенных характеристик, развитие селекционных работ, создание устойчивых к заболеваниям и продуктивных пород, повышение их племенных и продуктивных качеств имеет важное значение. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи по «коренному реформированию системы управления водными ресурсами», «увеличению объемов производства животноводческой продукции в 1,5-2 раза», а также «выращиванию экспортной продукции и наращиванию экспортного потенциала». Поэтому, оценка состояния пород рыб, выращиваемых в искусственных водоемах, разведение племенных рыб в целях селекции, выращивания племенного продукта и его использование, обоснование путей повышения качеств продуктивности имеет важное научно-практическое значение.

В нашей республике уделяется особое внимание государственной регистрации племенных рыб, определению их происхождения и продуктивности, учету информации о них, налаживанию эффективного использования наиболее ценного генофонда в селекционной работе, а также поддержанию генофонда исчезающих и специфичных для конкретного места пород. В частности, в постановлении президента «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию рыбной отрасли»² определены задачи «Дальнейшего развития рыбной отрасли, увеличения видов рыбной продукции, повышения экспортного потенциала, эффективного

¹ <https://www.who.int>

² Постановление Президента Республики Узбекистан от 13 января 2022 года № ПП-83 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию рыбной отрасли».

